PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

DAUN SINDROMLI BOLALARDA NUQTNI LOGOPEDIK KORREKSIYALASH USULLARI

Fayzullayeva Munisa Alimardon qizi
Qarshi Davlat universiteti
Pedagogika sport va san'at fakulteti
Logopediya yunalishi 025.5 guruh
https://doi.org/10.5281/zenodo.22959644

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Daun sindromli bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlari, ularda kuzatiladigan asosiy nutq nuqsonlari hamda ularni bartaraf etishning zamonaviy logopedik usullari tahlil qilingan. Tadqiqot ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish metodlari asosida olib borilgan. Natijada retseptiv va ekspressiv nutq o'rtasidagi tafovut, artikulyatsion buzilishlar, artikulyatsion gimnastika hamda PECS tizimining samaradorligi aniqlangan. Maqolada erta pedagogik aralashuv, oila-logoped hamkorligi va bolani ijtimoiy muhitga moslashtirishga oid amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Daun sindromi, trisomiya, nutq nuqsoni, logopedik korreksiya, erta aralashuv, artikulyatsion gimnastika, PECS tizimi, ijtimoiy moslashuv.

I. INTRODUCTION (Kirish)

Bugungi kunda dunyo bo'ylab Daun sindromi bilan tug'iladigan bolalar sonining ortib borayotgani kuzatilmoqda, bu esa ularning nutqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur o'rganishni taqozo etadi. Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, hozirgi kungacha Daun sindromining kelib chiqish sabablari to'liq aniqlanmagan, shuningdek uni bartaraf etishning tibbiy yechimi ham ishlab chiqilmagan. Shu sababli bunday bolalar bilan ishlashda yagona to'g'ri yo'l — ularning nutqiy va kognitiv rivojlanishini pedagogik-logopedik usullar orqali qo'llab-quvvatlash va yaxshilashdan iborat bo'lib qolmoqda.

Daun sindromi kasallik emas, balki homila shakllanish jarayonida yuzaga keladigan genetik holat hisoblanadi. Odatda inson hujayrasida 46 ta xromosoma bo'ladi, Daun sindromida esa 21-juftlikda qo'shimcha bitta xromosoma paydo bo'lib, ularning umumiy soni 47 taga yetadi — shu sababli bu holat ilmiy adabiyotlarda 21-trisomiya deb ham yuritiladi. Bu jarayon tasodifiy tabiatga ega bo'lib, ota-onaning turmush tarzi bilan bog'liq emas; faqat ona yoshining ulg'ayishi (ayniqsa 35 yoshdan keyin) bu holat ehtimolini biroz oshirishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Daun sindromli bolalarda mushak tonusining pastligi (gipotonus) kuzatiladi, bu esa ularning yurish, o'tirish va shu bilan birga nutq apparati mushaklarini boshqarishni kech o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, ular hissiy jihatdan boy, ijtimoiy muloqotga moyil bo'lib, san'at va musiqaga nisbatan alohida qiziqish namoyon etishadi — bu xususiyat logopedik ish jarayonida samarali qo'llanilishi mumkin.

Tibbiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, Daun sindromi o'rtacha har 700-800 nafar jonli tug'ilgan chaqaloqdan bittasida uchraydi. Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, global ko'rsatkich har 640-1000 tug'ilishga 1 tani tashkil etadi. O'zbekiston bo'yicha ko'rsatkichlar ham xalqaro darajadan sezilarli farq qilmaydi va har 600-800 nafar chaqaloqdan bittasida ushbu holat qayd etilmoqda. Tarqalish tendensiyasini tahlil qilishda ikki xil omilni hisobga olish zarur: rivojlangan davlatlarda ayollarning birinchi farzand ko'rish yoshi kechikishi natijasida sindrom bilan homila shakllanish holatlari ko'payishi kuzatiladi, biroq zamonaviy prenatal skrining usullarining keng joriy etilishi

tufayli bu holat erta bosqichda aniqlanadi; rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston misolida esa kuzatilayotgan o'sish ko'proq tibbiy diagnostika sifatining yaxshilanishi va jamiyatda bunday bolalarga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishi bilan izohlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Daun sindromli bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, ularda uchraydigan asosiy nutq nuqsonlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishning amaliy logopedik usullarini yoritishdan iborat.

II. METHODS (Tadqiqot metodlari)

Ushbu maqolani yozishda nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-metodik adabiyotlar, logopediya bo'yicha darsliklar hamda tibbiy-statistik ma'lumotlar tahlil qilindi va umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

- adabiyotlarni tahlil qilish va sintez qilish metodi — mavzuga oid ilmiy manbalarni o'rganish orqali nazariy asos shakllantirildi;
- qiyosiy tahlil metodi — Daun sindromli bolalarning nutqiy xususiyatlari sog'lom rivojlanayotgan bolalar bilan solishtirildi;
- umumlashtirish metodi — turli manbalardan olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, amaliy tavsiyalar shakliga keltirildi.

Tadqiqot amaliy tajriba yoki eksperiment o'tkazishga emas, balki mavjud ilmiy-nazariy bilimlarni tizimlashtirish va pedagogik amaliyot uchun qo'llanma tarzida taqdim etishga qaratilgan.

III. RESULTS (Natijalar)

3.1. Nutqiy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlar

Tahlil natijasida aniqlanishicha, Daun sindromli bolalarda nutq va muloqot tizimining shakllanishida muhim qonuniyat kuzatiladi: ularning tushunish qobiliyati (retseptiv nutq) gapirish qobiliyatidan (ekspressiv nutq) ancha yuqori darajada rivojlangan bo'ladi. Bola unga qaratilgan nutqni yaxshi tushunadi, biroq anatomik va nevrologik sabablar tufayli o'z fikrini og'zaki ifodalashda qiyinchilikka duch keladi.

Artikulyatsiya nuqtai nazaridan, til mushaklarining bo'shligi (gipotonus) hamda tanglayning nisbatan tor va baland joylashuvi tovush talaffuziga bevosita ta'sir qiladi. Natijada til uchi ishtirokini talab qiluvchi "r", "l", "sh", "ch" kabi tovushlar, shuningdek portlovchi undoshlar talaffuzida buzilishlar kuzatiladi, ko'p hollarda esa so'zning oxirgi bo'g'ini talaffuz qilinmay qoladi.

Grammatik-sintaktik jihatdan, kuchsiz eshitish xotirasi natijasida bu bolalarning nutqida "telegraf uslubi" deb ataluvchi hodisa kuzatiladi — ular gapda asosan mazmunan muhim so'zlarni (ot, fe'l) qo'llaydi, bog'lovchi va kelishik qo'shimchalarini esa deyarli ishlatmaydi. Bunday bolalarning gapi odatda ikki-uch so'zdan oshmaydi.

Lug'at boyligida ham passiv (tushuniladigan) va aktiv (qo'llaniladigan) lug'at o'rtasida sezilarli farq aniqlandi. Agar sog'lom rivojlanayotgan bolalarda birinchi so'zlar taxminan bir yoshda paydo bo'lsa, Daun sindromli bolalarda bu jarayon ikki-uch yoshgacha kechikishi mumkin. Shu bilan birga, bu bolalar imo-ishoralar va vizual vositalardan foydalanishda yuqori qobiliyat namoyon etadi, bu esa erta korreksion ishda muhim resurs sifatida baholanadi.

3.2. Amaliy korreksiya usullari

Tahlil natijasida Daun sindromli bolalar bilan ishlashda samarali deb topilgan amaliy usullar quyidagilardan iborat. Til mushaklarining bo'shligini bartaraf etish maqsadida artikulyatsion gimnastika mashqlari qo'llaniladi:

- "Igna" mashqi — bola tilining uchini ingichka qilib oldinga cho'zib, bir necha soniya ushlab turadi;
- "Soat mayatnigi" mashqi — til navbat bilan o'ng va chap lab burchaklariga tekkiziladi;

● "Ot choppillashi" mashqi — til yuqori tanglayga urilib, taqillash tovushi chiqariladi, bu "r" va "l" tovushlari uchun tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

Nutqi hali shakllanmagan yoki juda cheklangan bolalar bilan ishlashda vizual kartochkalar orqali muloqot o'rnatuvchi PECS (Picture Exchange Communication System) tizimidan foydalaniladi. Bola o'z ehtiyojini bildiruvchi kartochkani kattalarga uzatadi, buning evaziga tegishli buyum bilan ta'minlanadi, shu bilan birga so'z og'zaki takrorlanadi. Aniqlanishicha, bu tizim bolaning og'zaki nutqqa o'tishiga to'sqinlik qilmaydi, aksincha so'zlarni tez-tez eshitish hisobiga uning nutqiy rivojlanishini tezlashtiradi.

3.3. Ota-onalar bilan hamkorlikdagi ish natijalari

Tahlil shuni ko'rsatadiki, logopedik korreksiyaning samaradorligi ko'p jihatdan logoped va ota-ona o'rtasidagi izchil hamkorlikka bog'liq. Mutaxassis tomonidan olib boriladigan mashg'ulotlar uyda davom ettirilmasa, erishilgan natija barqaror bo'lmaydi. Ovqat tayyorlash jarayonida sabzavot va mevalar nomini so'rash, diqqatni jamlashga qaratilgan oddiy topshiriqli o'yinlar (masalan, gugurt cho'plarini qutiga solish vazifasi) kabi kundalik mashqlar bolada zerikish uyg'otmasdan, nutqiy ko'nikmalarning tabiiy va barqaror shakllanishiga xizmat qilishi aniqlandi.

IV. DISCUSSION (Muhokama va xulosa)

Olib borilgan tahlil natijalari Daun sindromli bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Nutqning kechikishi yagona, izolyatsiyalangan muammo emas, balki anatomik, nevrologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi — shu sababli uni faqat logopedik mashqlar bilan emas, balki oila, tibbiyot va pedagogika hamkorligida hal etish maqsadga muvofiqdir.

Muammoning oldini olish nuqtai nazaridan, homiladorlik davrida zamonaviy skrining usullaridan foydalanib, erta va aniq diagnostika o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Agar bola Daun sindromi bilan tug'ilgan bo'lsa, muammoning asoratlarga olib kelishining oldini olish uchun zarur davolash-tiklash muolajalari va pedagogik-logopedik yordam iloji boricha erta bosqichda boshlanishi lozim.

Shu bilan birga, tibbiyot fani oldida ushbu genetik holatning tub sabablarini yanada chuqurroq o'rganish va kelajakda uni bartaraf etishning ilmiy-tibbiy yo'llarini izlash vazifasi turibdi. Zero, sog'lig'i yoki rivojlanish xususiyatidan qat'i nazar, har bir inson to'laqonli va munosib hayot kechirishga haqlidir, va biz — bo'lajak mutaxassislarning vazifamiz ana shu huquqni ta'minlashga o'z hissamizni qo'shishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo'minova L.R. Logopediya (Darslik). — Toshkent: Noshir, 2013. — 280 b.
2. Ayupova M.Yu. Logopediya (Darslik). — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. — 184 b.
3. Bull, M.J. Down syndrome // New England Journal of Medicine.
4. Тингей-Михаэлис К. Дети с недостатками развития. Ota-onalar uchun qo'llanma.
5. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) rasmiy statistik ma'lumotlari.
6. AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC) ma'lumotlari.
7. Bondy A., Frost L. PECS: Picture Exchange Communication System — muloqot metodikasi.